

**BOLANING ISMI VA XARAKTER XUSUSIYATLARIKA BOG'LIQ EKANLIGI
BORASIDA NAZARIY QARASHLAR**

Mamajonova Mavluda

FDU psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: *maqolada bolalarga ism qo'yish, uning mohiyati va nomlanishning ahamiyati va shaxs va xarakter xususiyatlariga bog'liqlik ekanligi va diniy manbalarda ism qo'yish mohiyati borasida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ism, ong, diniy manba, oson, nomlanish, atalish, xarakter, xususiyat, bola, talaffuz, yoqimlilik.*

Regressolog Diana Sobitovaning fikricha, ismnинг talaffuz variantlari qanchalik ko'p bo'lsa, uning egasi uchun xarakter va hayotdagi voqealarning rivojlanishi uchun ko'proq imkoniyatlar bo'ladi. Agar to'satdan bola to'liq ismni yoqtirmasa, u o'ziga mos keladigan lotinni tanlashi mumkin bo'ladi. Ismnинг keng o'zgaruvchanligi bolaga moslashuvchanlik, erkinlikni sevish va har qanday hayotiy vaziyatga moslashish qobiliyati kabi fazilatlarni beradi. Ismnинг otasining ismi bilan osongina talaffuz qilinishi va familiya bilan uyg'unlashishi muhimdir. Atropsixolog Marian Bassning so'zlariga ko'ra, shu tarzda bola ism orqali o'ziga xos yordam oladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ism tanlashdan oldin, siz u orqali chaqalog'ingizga qanday xarakter xususiyatlarini qo'llab-quvvatlamoqchi ekanligingizni o'ylab ko'rishingiz kerak.¹

Regressolog Diana Sobitova yangi tug'ilgan chaqaloqqa taqdirini etkazmaslik uchun erta yoki fojiali tarzda vafot etgan qarindoshlarining ismlarini aytishga mutlaqo qarshi. Bundan tashqari, ko'p shaxsiy aloqalarining bo'lgan odamning ismini tanlamang (masalan, bolalikdagi butingiz). Ongli ravishda, siz boladan shunga o'xshash xatti-harakatni kutasiz yoki u erisha olmaydigan natijalardan tashqarida. Va chaqaloq tug'ilgan zodiak belgisini hisobga olishga harakat qiling, deb maslahat beradi astropsixolog Marianne Bass. Har bir belgiga xos bo'lgan xarakter xususiyatlarini bilib, ism salbiyni muvozanatlashi va ijobiyni kuchaytirishi mumkin. Bolaga ism tanlashda asosiy narsa, u butun umri davomida unga hamroh bo'lishini unutmang. Har bir ota-onalar orziqib kurgan farzandiga chiroyli va mazmun-dor ism qo'yishga harakat qiladi. Ba'zi ota-onalar bolaga qanday ism qo'yish haqida farzandi dunyoga kelishidan oldinroq o'ylab qo'yadilar, ko'p hollarda ismlarni kitoblardan izlaydilar. Shuningdek, ota-onalar kishilarning ismiga ham ahamiyat berib yuradilar. Ular qarindosh-urug', qo'niko'shni yoki tanish-bilishlar orasida piru badavlat, baxtli-taxtli, unib-o'sgan kishilar bo'lsa, kelajakda (katta bo'lganida) mening bolam ham o'shalarga o'xshab baxtli bo'lib yursin, deb havas bilan ularning ismlarini bolalariga qo'yadilar. Ota-onalar farzandlariga ism tanlayotganlarida uning avvalo ma'nosini, kelib chiqish tarixini bilishlari kerak.

¹Ktorova A. Shirin sovg'a yoki ism va taxalluslarning siri. - M ...: MChJ "Gamma - Press 2000", 2002. - 208 p.

Chaqaloqqa nom qo'yish, munosib ism tanlash qadimgi davrlardan ota-onalarda qarindosh-urug'larning erkin huquqi bo'lgan. Har bir xalq ism tanlashda o'z ona tilining so'z boyligi, imkoniyatlarga tayangan. Farzandlarga ism tanlashda nimalarga e'tibor berishimiz kerak? Bolaga ism tanlash ishiga jiddiy o'ylab, iloji boricha an'analariga bog'lab yondoshish lozim. Chaqaloqqa ism tanlaganda tildagi mavjud, tayyor nomlardan foydalanish bilan bir qatorda yangi, diqqatni tortuvchi, o'ziga xos ismlar ustida izlanish lozim. Ismlarimizda milliy ruhning saqlanishi, ular ona tilimiz qonuniyat va talablariga moye bo'lishi kerak. Ismni faqatgina tanlash va qo'yishgina yetmaydi, uni asray bilish ham lozim. Avvalo ism, familiya va otasining ismi shaxsining rasmiy hujjatlarida to'g'ri, xatosiz yozilmog'i kerak. Bolaning ismini turli shakllarda o'zgartirib, erkalatib aytishni taqiqlab bo'lmaydi. Ammo nomning mana shu erkalash tufayli buzilgan shakli ismning assosiy to'liq shakli o'rniغا o'tib qolishiga va rasmiy hujjatlarda buzilgan holatda yozilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.²

Ota-onalarda o'z farzandiga munosib ism tanlashga, ismning mazmunan go'zal, shaklan chiroyli bo'lishiga intilishi tabiiydir. Bunday shakllarda, odatda, xolisona orzu-umidlar, farzandga bo'lgan mehr-muhabbat hamda ezgu orzular o'z mujassamini topadi. Chaqaloqqa kurkam, namunali ismlarni tanlashga intilish yaxshi, albatta. Lekin o'zbeklarda ism tanlashning keyingi paytlarda yuzaga kelgan ba'zi xususiyatlari bir yoqlamalik, faqattina chiroyli, kurkam nomlar orqasidan quvib ketish tilimizdagi ismlar boyligining miqdoran kamayishiga, bolani nomlash rasm-rusmlarining siyqalashuvi, tilda bir xil o'xshash ismlarning keng tarqalishiga, natijada jamiyatda bir xil ism bilan ataluvchi shaxslar sonining ko'payib ketishidek salbiy holga olib keladi.

Bolaga ism tanlaganda faqatgina xohish-istiklal, orzu-umidlarga tayanishning o'zining kifoya qilmaydi, balki tanlanayotgan ismning talaffuzi va yozilishining, undan familiya va ota ismi yasashning qulayligiga ham e'tibor berish zarur. Shaxsni nomlashiing o'zbeklarda ommalashgan usullaridan biri ota ismidan keyin «o'g'li», «qizi» so'zlarini keltirishdir: «Botir Qoraboy o'g'li Ra'no Rahmon qizi» kabi. Musulmon odam 7 avlodini bilishi kerak degan ran bor. Shuning uchun yangi tug'ilgan farzandga nom berib uning hujjatini rasmiilashtirish vaqtida milliy shaklni ifodalash bilan birga familiyani ham sakdab qolishni tavsiya etamiz (masalan, Abdullayev Ilhom Ibrahim o'g'li). Chunki bu shakl ma'lum darajada sulolani, yaqin qarindosh-urug'larni ko'rsatib turadi. Quyida o'g'il va qiz bolalar uchun namuna sifatida ayrim ismlar ro'yxatini keltirar ekanmiz, yana bir bor ta'kidlaymizki, chiqaloqqa ism qo'yishda bular bilan aslo cheklanib qolmang, o'zbekning qariyb 20 ming ismlar boyligi bor — izlanib ulardan keng foydalanishga harakat qiling. Ma'lumki, farzandlarga chiroyli ism qo'yish farzandning ota-onadagi haqlaridandir. Shuning uchun ota-onalarga boshqa vazifalar kabi zimmasidagi ushbu haqni ham go'zal tarzda ado etmog'i kerak. Qo'yiladigan ism farzandni noqulay ahvolga soladigan, odamlar o'sha ism bilan uni kalaka qilib masxara qiladigan, har safar o'z ismini eshitganida aziyatlanadigan bo'lmasligi lozim. Ota-onalarga farzandlariga musulmonlar qo'yishga odatlangan ismlardan tanlab qo'yishlari kerak.

²Ktorova A. Shirin sovg'a yoki ism va taxalluslarning siri. - M ...: MChJ "Gamma - Press 2000", 2002. - 208 p.

Albatta, bu payg'ambarlar, sahabalar, tobeinlar, ulardan keyingi avlod vakillari hamda turli avliyolarning ismlaridir. Zero, chiroyli ismning ma'lum miqdorda egasiga ijobiy ta'siri bor. Shuningdek, qabih ismning ham.

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Bir kuni tushimda biz Uqba ibn Rofe'ning hovlisida ekanmiz. Shunda bizga Ibn Tobning xurmosidan keltirildi. Men ushbu tushni bizga bu dunyoda beriladigan martaba, oxiratdagi go'zal oqibat hamda dinimizning kamolga yetib, barcha ahkomlari to'la-to'kis qaror topishiga yo'ydim» dedilar». Muslim va Abu Dovud rivoyati.³ Bu hadisda Payg'ambar alayhissalom «Ibn Tob» ismidan kelib chiqib tushlarini ana shunday ta'bir qilganlar Sa'id ibn Musayyab rahimahulloh otalaridan rivoyat qiladilar:

«Bir kuni otam Nabiy sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga bordilar. Shunda u zot: «Isming nima?» deb so'radilar. U kishi: "Hazn" deb javob berdilar. Payg'ambar alayhissalom: «Sening isming Sahl» dedilar. U kishi: «Otam qo'ygan ismni o'zgartirmayman» deb e'tiroz bildirdilar». Sa'id ibn Musayyab rahimahulloh aytadilar: «O'sha kundan boshlab bizning oilamizdan xafagarchilik, mahzunlik hech arimadi». Qarang, mashhur tobein Sa'id ibn Musayyab rahimahullohning bobolarining ismlari Hazn bo'lgani uchun oilalarida doimo mahzunlik kayfiyati hukm surganini e'tirof etyaptilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: «Aslam qabilasi bilan sulh tuzib, tinch-totuv yashashimizni Alloh nasib etdi. G'ifor qabilasini Alloh mag'firat qildi. Usiyya qabilasi esa, Allohga va Uning Rasuliga osiy bo'ldi». Buxoriy va Muslim rivoyati. Bu hadisda Payg'ambar alayhissalom uchta qabilaning nomini aytib, har bir qabila o'z nomiga munosib bo'lgan natijaga erishganini ta'kidlayaptilar.

Ikrimadan rivoyat qilinadi:

«(Hudaybiya sulhiba ishtirok etish uchun) Suhayl ibn Amr kelganida Nabiy alayhissalom sahabalarga: «Endi ishlaringiz oson bitadi» dedilar». Buxoriy rivoyati. Bu hadisda esa, Payg'ambarimiz alayhissalom "Suhayl" ismini ishni oson, yengil bitishiga yo'ymoqdalar. Farzandlariga chiroyli ism qo'yishga haris bo'lgan ota farzandlariga xunuk, yoqimsiz va noqulay ism qo'yishga intiladigan otadan ancha farq qiladi. Birinchi ota qo'ygan ismi tufayli ajrga erishsa, ikkinchi ota qo'ygan ismi uchun o'ziga gunoh orttirib oladi. Shuning uchun ham musulmon ota farzandiga fazilat ahlining ismlaridan birortasini qo'yishi maqsadga muvofiqli. Iso alayhissalomning onalari bo'lmish Maryamning otalari Imron, inilari Horun, Muso alayhissalomning otalari Imron, inilari esa Horun bo'lgan. Lekin, Maryam onamiz Muso alayhissalomning singillari bo'lmanalar. Ular yashagan davrning o'rtasida bir necha asr muddat bor. Buning sababini Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan so'rashganida, u zot: «Ular farzandlariga o'zlaridan oldin o'tgan payg'ambarlar va solih insonlarning ismlarini qo'yar edilar» deb javob berdilar. Sa'id ibn Musayyab rahimahulloh otalaridan rivoyat qiladilar: "Kunya" deganda kishining ismidan avval aytildigan, bosh farzandining ismiga qo'shib «Falonchining otasi» ma'nosidagi narsa tushuniladi. Masalan, Abu

³ Gorbanevskie M.V. Ismlar va unvonlar dunyosida. - M.: "Bilim", 1983. - 190 b.

Abdulloh, Abu Dardo, Abu Muso kabi. Payg‘ambar alayhissalom ko‘plab sahobalarga kunya qo‘yib, o‘sha bilan chaqirar edilar. Masalan, Abdurahmon ibn Soxr ad-Davsiy roziyallohu anhu degan sahobaning mushukning bolasini o‘ynatib o‘tirganlarini ko‘rib, u kishini «Abu Hurayra», ya’ni «Mushukchaning otasi» deb chaqirganlar. Bir kuni havo juda ham isib ketganida biroz salqinlanish uchun dam olishga yotgan Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning tuproqqa belanib yotganlarini ko‘rgan Payg‘ambar alayhissalom u kishini «Abu Turob», ya’ni «Tuproq otasi» degan kunya bilan chaqirganlar. Bizda ham ba’zi xonadonlarda ayollar turmush o‘rtog‘larini bosh farzandlarining ismi bilan chaqirishlari odad tusiga kirgan. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning kunyalarini esa Abul Qosim edi.⁴

Ansolardan bir kishi o‘g‘il ko‘rdi. Unga “Muhammad” deb ism qo‘ymoqchi bo‘ldi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning oldilariga kelib shu haqida so‘raganida, u zot: «Ansoriy yaxshi ishga qo‘l uribdi. Ismimni qo‘yinglar, ammo kunyam bilan kunylanmanglar» dedilar.

1. Payg‘ambar alayhissalomning o‘zlari ham o‘g‘illariga Ibrohim deb ism qo‘yanlar.

2. Abu Muso roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «O‘g‘il ko‘rdim va uni Nabiy sollallohu alayhi vasallamning oldilariga olib bordim. Shunda u zot unga Ibrohim deb ism qo‘ydilar».

3. Shayx Bakr ibn Abdulloh Abu Zayd o‘zlarining «Tasmiyatul mavlud» («Farzandga ism qo‘yish») nomli kitoblarida quyidagilarni aytadilar: «Ey musulmon kishi! Ism nomlangan narsaning unvonidir. Kitobning nima haqidaligi uning nomidan bilinadi. Farzandning e’tiqodi, xulq-u atvori ham uning ismi orqali bilinadi. Qolaversa, uning ismi orqali ota-onasining maslagi, shariat arqonini qanchalik darajada ushlagani ham anglashiladi. Qanchadan qancha laqablarni eshitamiz. O‘sha laqab sohibini ko‘rsak, laqabiga o‘zi ham juda mosligining guvohi bo‘lamiz. Arablarda «Laqablar osmondan tushadi» degan naql bor. Yana ularda «Har bir ism egasiga o‘z ismidan nasiba bor» degan naql ham keng tarqalgan».

4. Siz bir insonning tashqi ko‘rinishiga, yurish-turishiga qarab, uning chiroyli xulq sohibi ekanligini anglaysizda, uning ismi ham jismiga mos chiroyli bo‘lsa kerak deb xayoldan o‘tkazasiz. Rostdan ham xuddi shunday bo‘lib chiqadi. Ko‘pchilikda bu hol sodir bo‘lgan. Kamdan-kam kishi mana shunday paytda adashadi. Aksi ham xuddi shunday bo‘lib chiqadi. Bu narsa tajriba mahsulidir.

5. Bir kishi mening oldimga farzandining anchadan beri betob ekani, ko‘rsatmagan shifokori qolmagani, nima qilishini bilmayotganidan shikoyat qilib keldi. Keyin men undan «Farzandingizning ismi nima?» deb so‘rasam, u «Muhammad Rasululloh» deb javob berdi. Men darhol uning ismini o‘zgartirish kerakligini, Muhammad Rasululloh bu olamda faqat bir insongagina nisbatan ishlatalishini aytdim. Keyin uning ismini Muhammad deb o‘zgartirdik. Allohning izni bilan u bolakay sog‘ayib ketdi. Bunga o‘xshash voqealar ko‘p sodir bo‘lib turadi.

⁴ Gorbanevskie M.V. Ismlar va unvonlar dunyosida. - M.: "Bilim", 1983. - 190 b.

6. Farzandingiz besh-olti yoshlarga, ya'ni ko'p savol beradigan yoshta yetganda sizdan o'zining ismi, uni kim qo'yganligi, uning ma'nosi nimaligi, nega unday ism qo'yilgani haqida turli savollar beradi. Agar siz unga chiroyli ism qo'ygan bo'lsangiz, qiyalmasdan, yaxshi kayfiyat bilan savollariga to'liq javob berasiz. Bordi-yu, unga yoqimsiz, xunuk, ma'nosi buzuq yoki biror bir ahli dunyoning ismini qo'ygan bo'lsangiz, qanday ahvolga tushishingizni bir tasavvur qilib ko'ring. Agar biror payg'ambarni yoki sahabani ismini qo'ygan bo'lsangiz, uning savoli bahonasida siz o'sha payg'ambar yoki sahabanining tarixini gapirib berish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Qolaversa, har gal uning ismini aytib chaqirilganda, o'sha ism sohibi bo'l mish fazilatli zot yodga tushadi. Bu qanday yaxshi!

7. Hozir ko'pchilik farzandiga turli shaxslar, ayniqsa, G'arb tomonlarda urf bo'lgan ismlarni qo'yyapti. Hadislarda Alloha eng ko'p yoqadigan ism U zotga bandalikni anglatadigan ismlar ekanligi aytib o'tilgan. Masalan, Abdulloh, Abdurrahmon, Abdulkarim va hokazo.

8. Qizlarimizga qo'yiladigan ismlar ham nubuvvat xonadoni xonimlarining ismlari, avliyolik maqomiga erishgan ko'plab soliha ayollarning ismi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

9. Farzandlarimizga qo'yilgan chiroyli ismlar ularni axloqli, komil inson qilib tarbiya qilishimizda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilishini unutmaylik!

10. Abu Abdulloh Mustafo ibn al-Adaviyning

11. «Farzandlarni tarbiya qilish fiqh» kitobidan olindi.

12. Tarjimon: Nozimjon Hoshimjon

Tavallud topgan bolaning qulog'iga ota-bobolarimiz birinchi navbatda bir mulla chaqirib, azon aytirganlar. Azon aytiganda bolaning qulog'i ochilgan. Odamlarni eshitish, tinglash qobiliyati shakllana boshlagan. Ismi ilk bor chaqaloqning o'z qulog'iga singdirilgan. So'ng uning chillasi — kichik chilla va katta chilla o'tkaziladi. Kichik chilla yigirma kungacha, bolaning onasi, enagasidan bo'lak yoniga, chillalik bo'lgani uchun hech kim kiritilmaydi. Katta chillasi, qirq kun o'tganidan keyin bolani beshikka belash marosimi bilan o'tadi.

Chillaning ma'nosi shuki, belgilangan muayyan muddat davomida (kichigi 20 kun, kattasi 40 kun) xonadonga begona odam kiritilmaydi. Namozshomdan keyin hech kim ko'chaga chiqmaydi, bemahalda ko'chadan hovliga birov kirmaydi. Chillali joy desangiz, zarurmand, shoshilinch mehmon ham musulmon bo'lsa, tushunadi. Ertasi, kun yorug'ida xonadonga mehmon tashrif buyuradi yangi dunyoga kelgan bolani yomon ko'zdan, ins-jinsdan asrash uchun shunday qilinadi.

Ma'lumki, farzandlarga chiroyli ism qo'yish farzandning ota-onadagi haqlaridandir. Shuning uchun ota-onal bosqqa vazifalar kabi zimmasidagi ushbu haqni ham go'zal tarzda ado etmog'i kerak. Qo'yiladigan ism farzandni noqulay ahvolga soladigan, odamlar o'sha ism bilan uni kalaka qilib massxara qiladigan, har safar o'z ismini eshitganida aziyatlanadigan bo'lmasligi lozim. Ota-onal farzandlariga musulmonlar qo'yishga odatlangan ismlardan tanlab qo'yishlari kerak. Albatta, bu payg'ambarlar, sahabalar, tobeinlar, ulardan keyingi avlod vakillari hamda turli

avliyolarning ismlaridir. Zero, chiroylı ismning ma'lum miqdorda egasiga ijobiy ta'siri bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андреева Г. М. Социальная психология : учеб. для высш. учеб. заведений. М. : Аспект-Пресс. - 1998. - С. 82.
2. Арнольдов А. И. Культура общения: современные концепции. - М. : Изд. дом МГУКИ, 2005. - 93 с. . Большой психологический словарь / сост. и общ. ред. Б. Мещеряков, В. Зинченко. - СПб. : Прайм-ЕВРОЗНАК. - 2003. - 672 с. .
3. Вердербер Р. Психология общения / Р. Вердербер, К. Вердербер. - СПб. : Прайм-ЕВРОЗНАК. - 2003. - 318 с. .
4. Королев С.И. Этническая психология: Методика изучения и методология использования - М., 2007.- 310с.
5. Крысько В.Г. Этническая психология: Учебное пособие - М.: Academia, 2009.- 480с. . Кочетков В.В. Психология межкультурных различий: Учебное пособие - М.: Per Se, 2002.- 386с.